

YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 120 (1181), 2024-yil 17-iyun, dushanba

www.yuz.uz f yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

SAMIMIY QUTLOVLAR

Butun musulmon ummati uchun muqaddas bo'lgan ezgulik, saxovat, insonparvarlik va hamjihatlik kabi oljanob qadriyatlarini o'zida mujassam etgan, jamiyatda o'zaro hurmat va bag'rikenglikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi Qurbon hayiti — Iyd al-Adho bayrami munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nomiga xorijiy davlatlar va hukumatlar yetakchilari, xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar rahbarlari, taniqli jamoat va din arboblari samimiy tabriklar kelmoqda.

Qutlovlarda davlatimiz rahbari va O'zbekistonning ko'pmillatli xalqiga hurmat-ehtiroam so'zlari, tinchlik-osoysizlik va ravnaq tilaklari izhor etilgan hamda do'stlik va ko'p qirrali hamkorlikni bundan buyon ham har tomonlama mustahkamlashga qat'iy intilish bildirilgan.

Jumladan, quyidagilar o'z tabriklarini yo'llagan:

Ikki Muqaddas Masjid xodimi, Saudiya Arabistoni Podshohi **Salmon ibn Abdulaziz Ol Saud;** Saudiya Arabistoni Valiahdi, Vazirlar Mahkamasi Raisi **Muhammad ibn Salmon ibn Abdulaziz Ol Saud;** Turkiya Respublikasi Prezidenti **Rejep Tayyip Erdog'an;** Misr Arab Respublikasi Prezidenti **Abdulfattoh as-Sisi;** Qozog'iston Respublikasi Prezidenti **Qosim-Jomart Toqayev;** Qirg'iz Respublikasi Prezidenti **Sadir Japarov;** Tojikiston Respublikasi Prezidenti **Emomali Rahmon;** Turkmaniston Prezidenti **Serdar Berdimuhamedov;** Turkman xalqining milliy yetakchisi, Turkmaniston Xalq Maslahati Raisi **Gurbanguli Berdimuhamedov;**

Ozərbayjan Respublikası Prezidenti **İlhəm Aliyev;** Birlashgan Arab Amirliklari Prezidenti **Shayx Muhammad bin Zoid Ol Nahayon;** Birlashgan Arab Amirliklari Vitse-prezidenti, Bosh vaziri, Dubai amirligi hokimi **Shayx Muhammad bin Roshid Ol Maktum;** Birlashgan Arab Amirliklari Vitse-prezidenti, Bosh vaziri o'rinbosari, Prezident ishleri bo'yicha vaziri **Shayx Mansur bin Zoid Ol Nahayon;** Birlashgan Arab Amirliklari Bosh vaziri o'rinbosari, ichki ishlar vaziri **Shayx Sayf bin Zoid Ol Nahayon;** Saudiya Arabistoni davlat vaziri, Vazirlar Mahkamasi a'zosi **Turki bin Muhammad bin Fahd bin Abdulaziz Ol Saud;** Kuvayt Davlati Amiri **Shayx Mish'al al-Ahmad al-Jobir as-Sahob;** Kuvayt Davlati Valiahdi **Saboh Holid al-Hamad al-Muborak as-Sahob;** Iordaniya Hoshimiylar Podshohligi Podshohi **Abdulla II;** Marokash Podshohi **Muhammad VI;** Jazo'r Xalq Demokratik Respublikasi Prezidenti **Abdulmajid Tebbun;** Falastin Davlati Prezidenti **Mahmud Abbas;** Turkiy davlatlar tashkiloti bosh kotibi **Kubanichbek Omuraliyev;** Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti bosh kotibi **Husrayv Noziriy;** Islom hamkorlik tashkiloti bosh kotibi **Husayn Ibrohim Toha;** Kavkaz musulmonlari idorasi raisi shayxulislom **Oллоhshukur Poshshozoda.**

Qutlovlar kelishi davom etmoqda.



Shukuh

“EZGU ISH QILUVCHILARGA XUSHXABAR BERING!”

Yurtimizda kechayotgan diniy-ma'rifiy sohada keng ko'lamli islohotlar, ijobiy o'zgarishlarning amaliy in'ikosi xalqimiz musulmonlarining o'z ibodatlarini amin-erkin ado etishi uchun yaratilayotgan yengillik, qulaylik va imkoniyatlarda yaqqol aks etmoqda. Jumladan, “Haj — 2024” mavsumi doirasida yurtimiz hojilari uchun yaratilgan shart-sharoitlar Saudiya Arabistoni Podshohligining “al-Madina”, “Ar-Riyod”, “al-Xabar”, “al-Xalij” kabi katta adadga ega nufuzli markaziy nashrlari tomonidan yuksak e'tirof etilganini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Davlatimiz rahbarining O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy shayx Nuriddin Xoliqnazar bilan telefon orqali muloqot qilib, bo'lajak hojilarga o'z e'tibor va g'amxo'rligini izhor qilishi esa mamlakatimiz tarixida ilk bor kuzatilmoqda.

Kecha esa Prezidentimiz O'zbekiston xalqiga Qurbon hayiti tabrigini yo'lladi. Unda xalqimiz hayotida ezgulik, mehr-muruvvat, saxovat va oljanoblik ramzi sifatida mustahkam qaror topgan Qurbon hayiti bugungi kunda biz uchun barcha

sohalarda inson qadri yetakchi o'ringa chiqayotgan yangi O'zbekistonda keng ko'lamli islohotlar mazmuniga naqadar uyg'un va hamohang ekani bilan yanada ahamiyatli bo'lib borayotgani ta'kidlandi.

Davomi 2-beta

Biz bir bo'lsak — yagona xalqimiz, birlashsak — Vatanimiz!

FUQAROLIK MAS'ULIYATI

VATANDOSHLARNI SEVADIGAN SHAXSLAR YURTNI YUKSALTIRADI

O'zaro hurmat, mehr-oqibat jamiyatdagi birdamlikka xizmat qiladi. Ahillik bor joyda ishlar olg'a siljishi haqida ortiqcha ta'rif kerak emas. Ayni paytda biz huquqiy demokratik davlatda yashaymiz. Bunday yurtda qarashlar, fikrlar turlicha bo'lishi tabiiy. Ana shu turfaalik ahillikka daxil qilmasligi shart. Xalq, yurt manfaatiga daxldor mavzular atrofida hamfikir bo'lish juda muhim. Qaysidir ma'noda aynan shu jihat qanchalik vatanparvar ekanimizni ko'rsatadi.

Yangi O'zbekistonda “Inson qadri uchun” g'oyasi asosida islohotlar qilinayapti. Maqsad bitta — xalq farovonligi, yurt taraqqiyoti. Bu ishlar to'la ro'yog'ga oshishi, ko'zlangan maqsadga erishish uchun jamiyat bir mushk bo'lib harakatga kelishi kerak. Buning uchun, avvalo, jamiyat tafakkurida evrilish sodir bo'lishi lozim.

Bugun iqtisodiy barqarorlik uchun ijtimoiy himoya, tadbirkorlikka keng yo'l ochishga qaratilgan ishlar bajarilmoqda. Ma'naviy

o'sish uchun esa jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashilmoqda. Global dunyoda, xalqaro maydonda tinchlikni saqlashga boshqalardan ko'ra ko'proq mas'ul davlatlar ikki xil standartda “o'yin” o'ynamoqda. Bunday vaziyatda ma'rifat mayog'ini baland ko'targanlar boshqalarni ortidan ergashtirishi oson kechmaydi. Shu bois, shaxs tarbiyasi har doimgidan ham muhim.

Davomi 3-beta

Islohotlar amalda

AYOLLAR TADBIRKOR BO'LSA

bundan oilasi ham, jamiyatimiz ham katta naf ko'radi

Qo'shnimiz Xurshida Nazarova fizika fani o'qituvchisi. U hozir farzand tarbiyasi bilan band bo'lsa-da, sohasi bo'yicha bilim va mahoratini oshirishdan aslo to'xtamaydi. Buning uchun qulay imkoniyatlar ham yetarli — internet resurslar orqali ta'lim jarayonida ro'y berayotgan o'zgarish va yangiliklar bilan uzluksiz tanishib borish mumkin. Xurshida so'nggi paytlarda bunday mahorat darslarida tez-tez qatnashmoqda. Sababini so'rasam, yangi o'quv yilidan ishga qaytmoqchi ekan.



“Farzandimiz hali juda yosh-ku, bolani kimga qoldirasiz?”, deb so'rayman onasining oldida tetapoya qilib yurgan mitti qizaloqqa qarab. “Kichik emas,

opa, ikki yoshini to'ldirdi, xususiy bog'chalarga qabul qiladi. Yonimizda shunday bog'cha bor, tarbiyachilari bolaga juda mehrilib, tajribali. Katta

qizimiyam shu bog'chaga berganman”, deydi xotirjamlik bilan.

Yana bir tanishim ikki farzandining tarbiyasi, ro'zg'or yumushlari bilan uйда qolib ketgandi. Yaqinda ko'rishib qoldim, ikki bolasini ham bog'chaga berib, kasb-hunarga o'qitish markazida tikuvchilikni o'rganibdi. Hozir kasanachilik asosida uйда tikish qilayotgan ekan.

Yaqin-yaqingacha “Ayol kishi uйда o'tirgani, farzand tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lgani yaxshi, uning ishlashidan naf yo'q” yoki “Qiz bola o'qib shahar olib berarmidi?” qabulidagi fikrlar ko'pchilikning tafakkuriga o'mashgani bois, qizlarni o'qitish, kasb-hunar o'rgatishga e'tibor sust edi. Huquqiy islohotlar, gender tenglikka oid yangicha qarashlar tufayli dunyoqarashimiz o'zgarib boryapti. Buni hozirgi kunda oliy o'quv yurtlarida o'qiyotgan yoshlarning yarmidan ko'pi qizlar ekani, qolaversa, tadbirkor ayollar safi ham yil sayin kengayib borayotgani misolida ko'rish mumkin.

Davomi 5-beta

Sayxunobod tajribasi

YER BILAN TILLASHSAK

KUZGACHA UCH, QISHDA ESA IKKI MARTA HOSIL OLISH MUMKIN

Hududlarda tomorqadan samarali foydalanish “Sayxunobod tajribasi” asosida yangi bosqichga chiqdi. Aksariyat xonadonlarda dastlabki hosil yig'ishtirilib, navbatdagi ekinlar ham ekib bo'lindi. Bu esa aholining tomorqadan bir yilda 2-3 marta hosil olish tajribasi tobora oshib borayotganidan dalolat beradi.



Xatirchi tumanidagi Galabek mahallasida yashovchi Hasan Ibragimov tomorqasidagi 2,5 sotix issiqxonasida yetishtirilgan kartoshkani mahalliy bozorga olib chiqib, yaxshigina daromad oldi. Hozir tomorqasidagi ochiq maydondan kartoshka hosili yig'ishtirilmoqda. Endi esa xonadon egasi ikkinchi ekinni ekish taraddudida.

Har bir xatirchilik azaldan dehqonchilik va bog'dorchilikning hadisini olgan. Geografik joylashuviga ko'ra ham tuprog'i nam va unumdor. Zarafshon daryosining hududdan oqib o'tishi xatirchiliklarning omadi. Shu bois, sug'orishda muammo yo'q. Xalqi esa mehnatkash va qaysi kasbda ishlamasin, faoliyatining bir qismini dehqonchilik bilan bog'laydi. Tomorqaning o'zidan yiliga kamida 100 million so'm atrofida sof foyda topayotganlar ko'pchilikni tashkil etadi.

Tumanimizda 200 mingdan ziyod aholi istiqomat qiladi va 39 mingga

yaqin xonadon bor, — deydi O'zbekiston mahallalar uyushmasi Xatirchi tumani bo'limi mutaxassisi Davron Ahmadov. — Ayni vaqtda xonadonlardagi 4260 gektar tomorqa yerdan samarali foydalanish bo'yicha aholi bilan tizimli ishlar yo'lga qo'yilgan. Ayniqsa, “Sayxunobod tajribasi”ni joriy etish bo'yicha “mahalla yetilligi” har bir xonadon imkoniyatini o'rganib chiqib, mutaxassislar bilan hamkorlikda zarur tavsiyalar berdi. Shuningdek, tijorat banklari ko'magida xonadonlarga issiqxonalar qurildi va asalarichilik, parrandachilik, baliqchilik, chorvachilik kabi yo'nalishlarda kreditlar ajratildi. Ayni vaqtda bu tizim samarasini berayotgani aholining tomorqadan olayotgan daromadi oshib borayotganida namoyon bo'lmoqda.

Davomi 4-beta

